

**FIZIKA FANIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH**

*Farg'ona viloyati Quva tuman kasb-hunar  
maktabi fizika fani o'qituvchisi  
Mallaboyeva Shoxidaxon To'xtanazarovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada " Fizika darslarida interfaol usullarning ahamiyati" mavzusiga oid tushunchalar va fikrlar tahlil qilinib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Interfaol, innovatsiya, pedagogika, modul, tanqid

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Shuningdek ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.[1] Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o'qitish usullari haqida so'z yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan Fizika darslarida qo'llanishi mumkin bo'lgan ayrim metodlar xususida so'z yuritimiz.

1. Modulli ta'lim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2. Assotsiatsiyalar Bu bosqichda o`quvchilarning har bir guruhiga bo`lajak mavzuni o`rganish bilan bog`liq bo`lgan so`z yoki gap yozilgan plakat beriladi. Uning quyiga o`quvchilar ana shu so`z yoki gap ularning ko`zlari oldida gavalantiradigan tasavvurlarini yozib qo`yadilar. Masalan: plakatda vertikal yo`nalish bo`yicha tanlangan mavzu bilan bog`liq bo`lgan tushuncha yoziladi. Ushbu so`zning har bir harfiga ishtirokchilar o`z tasavvurlarini bayon qiladilar va yozadilar. Masalan:

M – muammo, muloqot, mantiq, misol, masala...

U uddalamoq, uzluksiz, uyg`unlashtirmoq....

N – nazariya, najot, navbahor, nafosat...

O – oqilonalik, omil, omma, ong...

Z – zimma, zukko, zamon, zarar, ziynat...

A – axborot, agrotexnika, ajoyibot, avaylash...

R – reja, ravnaq, rag`bat, raqam, rahnamo...

A – ahamiyat, ahvol, aql, ahillik, afzallik...

Xulosa:

Ta'limda interfaol metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad - o'qituvchining o'z pedagogik xazinasini qayta ko'rib chiqishiga yordamlashish, yanada yuqri sifatli metodik yo'nalishga intilishini hosil qilish, kelgusi o'ylar, izlanishlar, tajribalarga undashdir.

3. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalar to'g'riligini tasdiqlashdir.

4. Interfaol metod texnologiyasi. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlariga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5. Didaktik o'yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

6. Aqliy hujum bosqichi. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanishi mumkin bo'lib, u muamoni o'z g'oyalari, fikrlarini aytish yo'li bilan hal qilishdan iborat. Masalan, o'qituvchi sinf taxtasiga til so'zini yozadi va o'quvchilardan " Ushbu so'z sizlarda qanday tassavvur hosil qildi yoki shu so'zni yana qaday talqin qilsa bo'ladi?" - deb so'raydi.[3] O'qituvchi o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni sinf taxtasiga quyidagi tartibda yozib borishi mumkin: O'qituvchilarning fikrlari noto'g'ri deb topilmasligi lozim aksincha, o'qituvchi iloji boricha o'quvchilarga yordam berishi noto'g'ri fikr aytib qo'yishdan cho'chimaslikka da'vat qilishi, oxirida esa bildirilgan fikrlarning har birini o'qituvchi tahlil qilib berishi kerak. Ushbu jarayonda o'quvchilar bu so'z haqida ko'p ma'lumotga ega bo'ladilar, ya'ni bunda muammo o'quvchilarga aqliy hujum yo'li bilan berilib, ularning fikri bilan ochiladi va natijada mavzuni tushunish osonroq kechadi.

Anglash bosqichi. [4]Bu bosqichda aqliy hujum bosqichidagi mavzuga oid bahsmunozara natijasida yuzaga kelgan xulosaviy fikrlar eshilib, o'qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi. Savol-javoblar orqali mavzu mustahkamlanadi.

Fikrlash bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilarga mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim va tushunchalarni qisqa jumalarda yozma ravishda bayon qilish topshirig'i beriladi. Bu topshiriqni bajarishda o'qituvchi o'quvchilarni 3-7 kishidan iborat guruhlariga bo'ladi va ularga bir varoq qog'oz tarqatadi. Masalan, "So'z - gaplar" mavzusi yuzasidan o'qituvchi har bir guruhga so'z - gaplarning o'ziga xos 3 ta xususiyatini aniqlash vazifasini topshiradi va bu topshiriqqa malum bir vaqt ajratadi. Guruhdagi o'quvchilarning har biri o'z fikrini aytadi. Bir o'quvchi esa fikrlarni yozib boradi. O'quvchilar guruhlarda topshiriq bilan band bo'lgan vaqtda o'qituvchi sinf bo'ylab yurib, barchani kuzatadi va topshiriqqa izohlar beradi, yordamga zaruriyat sezayotganlarga yordam ko'rsatadi. Vaqt tugagandan so'ng hammaning e'tibori sinf taxtasiga jalb qilinadi. Har bir guruhdan bittadan vakil (taqdimotchi) sinf taxtasi oldiga chiqib, guruh bajargan vazifani butun sinf oldida taqdim qiladi. Har bir taqdimot baholanib boriladi. Hamma guruhlar ishlarini yakunlagandan so'ng o'qituvchi ularga izoh beradi, xatolari bo'lsa to'g'irlaydi va xulosalaydi, guruhlar ishiga umumiy baho beradi. Interfaol dars turlaridan har bir o'qituvchi unumli foydalanib, o'quv ta'lim faoliyatining kuchayishiga katta ta'sir o'tkazishi, o'quvchilarning bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatlarini, tanqidiy fikrlash malakalarini o'stirishga va har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishlariga ko'makdosh bo'lishlari kerak. [5]

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 6694-6701.[1]
2. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. *Science and Education*, 1(4), 84-89.[2]